

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/30.12.2019.V.12.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

SOLIYEV BAXTIYORJON CHINOBUDINOVICH

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDAGI MAHSULDOR SIGIRLARDA
YOD, RUX YETISHMOVCHILIGI VA ULARNING
OQIBATIDAGI BEPUSHTLIKLER**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Soliyev Baxtiyorjon Chinobudinovich

Farg‘ona vodiysi sharoitidagi mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi
va ularning oqibatidagi bepushtliklar..... 3

Солиев Баҳтиёржон Чинобудинович

Дефицит йода и цинка у продуктивных коров в условиях Ферганской
долины и вызываемое им бесплодие..... 23

Soliev Bakhtiyorjon Chinobudinovich

Deficiency of iodine and zinc in productive cows in the conditions of the
Ferghana Valley and infertility caused by it..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/30.12.2019.V.12.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

SOLIYEV BAXTIYORJON CHINOBUDINOVICH

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDAGI MAHSULDOR SIGIRLARDA
YOD, RUX YETISHMOVCHILIGI VA ULARNING
OQIBATIDAGI BEPUSHTLIKLER**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/V66 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshburiyev Baxtiyar Mamatkulovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bakirov Baxtiyar
veterinariya fanlari doktori, professor

Kuldashev Otamurod Urazovich
veterinariya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Samarcand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «19 » avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarcand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Samarcand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14307 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarcand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «17 » avgust kuni tarqatildi.
(2023 yil «17 » avgust dagi №3 - raqamli reyestr bayonnomasi).




X.B.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
biol.f.d., professor



S.B.Eshburiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.d., dotsent



Q.N.Norboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida mahsuldor sigirlar orasida moddalar almashinuvi buzilishlari, shu jumladan mikroelementlar yetishmovchiligi kasalliklari oqibatida ko‘pgina ikkilamchi kasalliklar, xususan bepushtliklar ko‘p uchramoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda ushbu guruh kasalliklarini erta diagnostikasi, samarali davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Xususan, mahsuldor sigirlarda yod va rux mikroelementlari yetishmovchiligi etiologiyasida hududlarning geoekologik holatini aniqlash, kasallikni barvaqt diagnostika qilish usullari, guruhli profilaktika chora- tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jahon mamlakatlarida yuqori mahsuldor sigirlarda mikroelementozlar, shuningdek, yod va rux mikroelementlarining yetishmovchiligi bepushtliklarga sabab bo‘lib, ayrim qoramolchilik xo‘jaliklari sharoitida ushbu gipomikroelementozlar sigirlar yuqumsiz kasalliklarining etiologiyasida 33,8% gachani tashkil etmoqda¹. Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, insonlar orasida yod yetishmovchiligi qayd etilishi hollari yiliga 5% gacha ko‘payishi aniqlangan. Tireoid patologiyaning rivojlanishida ekologik holatning yomonlashishi oziqlarda yodni yetishmasligi asosiy etiologik omil hisoblanadi². Mahsuldor sigirlarda hududning biogeokimyoviy xususiyatlarini, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarini hisobga olgan holda ratsionni essensial mikroelementlar va biologik faol moddalar bilan boyitish orqali kasalliklarning guruhli profilaktikasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda agrar sohaning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilikda ham amalga oshirilayotgan tub islohatlar natijasida chorva mollarining bosh soni yildan-yilga ko‘payib, mahsulorligi oshib bormoqda. Bu borada chorva mollarining kasalliklarini oldini olishga qaratilgan, jumladan, hayvonlarda uchraydigan yod va rux yetishmovchiligi kasalliklarining sabablarini aniqlash, erta diagnostika qilish, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qoramolchilik xo‘jaliklari sharoitida mahsuldor hayvonlar orasida yod, rux mikroelementlari yetishmovchiligi kasalliklari yildan-yilga ko‘p qayd etilib, o‘rtacha 40-60 foizini tashkil etishi aniqlangan. Ushbu mikroelementozlar oqibatida go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish salmog‘ining kamayishi va buzoq olishning keskin kamayishi hisobiga iqtisodiy zarar ko‘rishi holatlari kuzatiladi. Shu boisdan, sog‘in sigirlarda yod va rux mikroelementlari yetishmovchiligining tarqalishi, xo‘jaliklarga keltiradigan zararini, sabablari va rivojlanish mexanizmlarini aniqlash, kasalliklarni

¹ Пестова Л.В. Микроэлементная недостаточность крупного рогатого скота в Ивановской области и меры ее профилактики. Автореф. дис. канд. вет. наук.- Иваново 2003.18. с.

² Зулунов А.Т. Ультразвуковая скрининг заболеваний щитовидный железы ферганской долины. *Re-health journal*, 2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/ultrazvukovaya-skrining-zabolevaniya-schitovidnyy-zhelezы-ferganskoy-doliny>

erta diagnostika qilish, guruhli profilaktika qilishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysi chorvachilik fermer xo‘jaliklari sharoitida dastlabkilardan bo‘lib, bajarilgan ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi³, 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Hayvonlarda mikroelementozlarning etiologiyasi, kechish xususiyatlari, diagnostikasi va oldini olish bo‘yicha ilmiytadqiqotlar olib borilgan, jumladan xorijiy olimlardan М.А.Риш, Е.А.Егоров, А.А.Кабыш, Р.П.Пушкарев, И.И.Ковалский, Д.В.Абдуллаев, Н.А.Судаков, В.Т.Самохин, Н.А.Уразаев, И.П.Кондрахин, Sh.N.Nazarov, M.Sultanov, В.К.Кашин, И.П.Лигомина, В.Л.Романюк, В.Б.Борисевич, В.Н.Денисенко, П.Н.Абрамов, Пестова Л.В., Р.Х.Авзалов, П.Я.Гущин, Respublikamiz olimlaridan Q.N.Norboev, B.Bakirov, B.M.Eshburiyev kabi yetuk olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga molik natijalarga erishilgan.

Ilmiy manbalar ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kungacha respublikamizning Farg‘ona vodiysi qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida sog‘in sigirlar mikroelementozlari va ular oqibatidagi bepushtliklarning etiopatogenezi, diagnostikasi va oldini olish usullari hududning geoekologik xususiyatlari va jadal texnologiyalar asosida chorvachilikni yuritish sharoitlarini hisobga olgan holda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzuining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining qoramolchilik xo‘jaliklari bilan hamkorlikda tuzilgan xo‘jalik shartnomalari (2019-2022 yy.) hamda Italiyaning Piza va Padova universitetlari, Portugaliyaning Porto universiteti, Estoniyaning Tartu amaliy bilimlar universiteti Erasmus+ dasturining

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi³ PF-60-sonli farmoni.

586000-EPP-1-2017-1-PT-EPPKA2-CBHE-JP «BUzNet: B-Learning Uzbekistan Veterinary Network» mavzusidagi (2017-2022 yy.) xalqaro amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sog‘in sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatida kuzatiladigan alimentar bepushtliklarning etiologiyasi, kasalliklarning kechish xususiyatlari va diagnostikasini asoslash hamda sigirlarda bepushtliklarni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg‘ona vodiysi sharoitida qoramolchilik fermer xo‘jaliklarda sog‘in sigirlarda yod, rux mikroelementlari yetishmovchiligi va ular oqibatida kuzatiladigan bepushtlikning tarqalishi, sabablari va iqtisodiy zararini aniqlash;

mahsuldar sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ular oqibatidagi bepushtliklarning kechish xususiyatlari, simptomlari va gematologik o‘zgarishlarni aniqlash;

mahsuldar sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ular oqibatidagi bepushtliklarning klinik, gematologik hamda akusher-ginekologik tekshirishlarga asoslangan ertachi diagnostikasi usullarini ishlab chiqish;

sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ular oqibatidagi alimentar bepushliklarini guruhli profilaktika qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Farg‘ona vodiysi viloyatlarining qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida parvarishlanayotgan sog‘in sigirlar, ularidan olingan qon namunalari, asosiy oziqalar namunalari va mikroelementlar tuzlari, mikroelementlar bilan boyitilgan granulalangan omixta yem oligan.

Tadqiqotning predmeti sog‘in sigirlar va yangi tug‘ilgan buzoqlarning klinik, gematologik ko‘rsatkichlari, UTT natijalari, ratsion tarkibi va to‘yimliligi tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda klinik, morfologik, biokimiyoviy, mikroskopik, ginekologik-sonografik tekshirishlar, oziqa namunalarini zootexnikaviy tahlil qilish va statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitidagi sog‘in sigirlarda yod, rux mikroelementlari yetishmovchiligi va ular oqibatida kuzatiladigan bepushtlikning tarqalishi, sabablari va iqtisodiy zarari, patogenezi va kechish xususiyatlari aniqlangan;

mahsuldar sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi ishtahaning o‘zgarishi (lizuxa), shilliq pardalarning anemiyasi, teri qoplamasи yaltiroqligi va elastikligining pasayishi, pigmentsizlanishi peshona va yelkada junlarning kuchli o‘sishi, bo‘yin va tizza sohalarida terining burmali holatga kelishi kabi diagnostik ahamiyatga ega simptomlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklar noto‘liq jinsiy sikl va (areaktiv, anovulyator jinsiy sikl) kuyikishning yashirin kechishi, servis davrining o‘rtacha 90-110 kungacha uzayishi aniqlangan.

sigirlarda asosan yod, rux yetishmovchiligi bilan kechadigan mikroelementozlar va ular oqibatidagi bepushtliklar qondagi gemoglobin, umumiy oqsil, glyukoza,

ishqoriy zahira va rux miqdorlarini kamayishi bilan xarakterlanishi tadqiqotlarda isbotlangan.

sog‘in sigirlarda yod, rux mikroelementlari yetishmovchiligi va ular oqibatida kuzatiladigan bepushtliklarni oldini olish uchun mikroelementlar bilan boyitilgan granula shaklidagi omuxta yem berilishi ularning pushtdorligi hamda mahsuldarligiga ijobjiy ta’sir etishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahsuldar sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladigan bepushtliklarning asosiy sabablari ular ratsionlarining takomillashmaganligi, ratsionda yod va ruxga bo‘lgan talabini to‘liq qondirilmasligi ilmiy asoslangan;

mahsuldar sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatida rivojlanadigan alimentar bepushtlikni klinik, gematologik hamda akusher-ginekologik, sonografik tekshirishlarga asoslanib diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan;

sog‘in sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi va ular oqibatidagi bepushtliklar etiologiyasi va patogenezi, erta diagnostikasi usullari aniqlanib, granulalangan mikroelementli oziqaviy aralashmasini qo‘llash bilan sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarni guruh usulida profilaktika qilish tadbirlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, klinik, biokimyoviy, morfologik, zootexnikaviy uslublardan foydalanish va raqamli ma’lumotlarga ishlov berish, shuningdek, olingan nazariy natjalarning tajriba ma’lumotlari bilan to‘g‘ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natjalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sog‘in sigirlarda yod va rux yetishmovchiligidan kelib chiqadigan alimentar bepushtliklarning sabablari va kechish xususiyatlari, hayvonlarni bir joyda saqlash sharoitlarida ularni alimentar-endemik xarakterda kechishi, ratsionda yetishmaydigan yod va rux mikroelementlarining tuzlarini sigirlar ratsioniga qo‘shimcha ravishda qo‘llash orqali ushbu patologiyani oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati sog‘in sigirlarda yod va rux yetishmovchiligining oldini olish uchun mikroelementli-vitaminli oziqaviy aralashmalarni qo‘llash bilan guruh usulida profilaktika qilish chora-tadbirlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysi sharoitidagi mahsuldar sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ularning oqibatidagi bepushtliklar bo‘yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

«Farg‘ona vodiysi sharoitida mahsuldar sigirlarda yod va rux yetishmovchiligining etiopatogenezi, ertachi diagnostikasi» bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chovchilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023 yil 17-martdagi 02/23-116-son ma’lumotnomasi). Natijada sigirlarning yod, rux yetishmovchiligi va ular oqibatidagi

bepushtliklarining sabablari, rivojlanishi va kechish xususiyatlari, simptom va sindromlarini o‘rganish asosida ertachi diagnostika qilishga erishilgan;

«Farg‘ona vodiysi sharoitida mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ularning oqibatidagi bepushtliklarni oldini olish» bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023 yil 17-martdagi 02/23-116-son ma’lumotnomasi). Natijada sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligini guruhli profilaktika qilinishi hamda sut mahsuldorligining o‘rtacha 5,4 litrga, ulardan olingan buzoqlarning tug‘ilgandagi tana vaznining nazoratga nisbatan o‘rtacha 7,4 kg ga yuqori bo‘lishini ta’minlagan.

Farg‘ona vodiysi qoramolchilik fermer xo‘jaliklarida sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ularning oqibatidagi bepushtliklarni guruhli profilaktika qilishda mikroelementlar tuzlari bilan boyitilgan granulalangan yemlarni qo‘llash usullari joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023 yil 17-martdagi 02/23-116-son ma’lumotnomasi). Natijada mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarning oldini olishga erishilgan hamda iqtisodiy samaradorlik bir bosh sigir hisobiga o‘rtacha 410450,6 ming so‘mni, bir so‘mga xarajatlar qoplami esa 5,07 so‘mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ularning 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida nashr etilgan. 2 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari, tadqiqotning ob’ekti, tadqiqotning ilmiy yangiliklari, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi etiopatogenezi va diagnostikasi, reproduktiv a’zolar faoliyatiga ta’siri hamda kasalikni oldini olish usullariga oid adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi etiopatogenezi va

diagnostikasi, ularning oqibatida kuzatiladigan bepushtliklarning rivojlanish xususiyatlari, patologiyani oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha ilmiy manbalar tahlili keltirilgan. «Mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligining reproduktiv a'zolar faoliyatiga ta'siri» deb nomlangan ikkinchi bo'limida dunyo olimlarining va respublikamiz ilmiy tadqiqochilar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mikroelementozlar oqibatida bepushliklarni rivojlanish mexanizmi, reproduktiv organlarga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. «Mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ularning oqibatidagi bepushliklar guruhli profilaktikasi» deb nomlangan uchinchi qismida mikroelementlar almashinuvi buzilishi oqibatidagi bepushliklarni oldini olish usullari haqidagi adabiyot ma'lumotlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotlarning joyi, ob'ekti va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarning joyi, ob'ekti va uslublari hamda dispanser tekshirish natijalari bayon etilgan.

Tadqiqotlarimizning tajribalar qismi 2019-2022 yillar davomida Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumani "SAVAY MILK GROUP" va "Navruz saxovat mezoni" fermer xo'jaliklariga qarashli chetdan keltirilgan simmental zotiga mansub mahsuldor sog'in sigirlarda, Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi "Barxayot Abdulla Xoji" qoramolchilik xo'jaliklarida hamda Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining o'quv tajriba xo'jaligiga qarashli sog'in sigirlarda dispanser tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqotlar davomida xo'jalikning ekologik-biogeokimyoviy holati tahlil qilindi, ratsionning asosini tashkil etuvchi oziqa na'munalari tarkibi va xususiyatlari o'rganildi. Ratsionlar to'yimligi va tarkibi bo'yicha tahlil qilindi.

Dispanser tadqiqotlar o'tkazish uchun xo'jalikdagi 4-5 yoshli simmental zotli sigirlardan "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida etolon guruh sifatida 10 bosh sigir ajratilib, ularda har 20 kunda bir marta klinik-fiziologik status, akusher-ginekologik tekshirishlar va qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirishlar olib borildi.

Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushliklarni guruhli profilaktika qilishda qo'llaniladigan dori vositalarini tanlash, ularning sigirlar organizmiga ta'sirini o'rganish va guruhli profilaktik tadbiralarini o'tkazishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida 3 bosqichda ilmiy va ilmiy-xo'jalik tajribalari olib borildi.

Dissertatsiyaning **«Mahsuldor sigirlarda dispanserlash natijalari»** deb nomlangan bo'limida qoramolchilik fermer xo'jaliklarida o'tkazilgan dispanser tekshirishlar natijasi keltirilgan. 2019-2022 yillar davomida olib borilgan dispanserlash natijalariga ko'ra, sigirlarda endometritlar o'rtacha 4%, tuyoq kasalliklari - 10%, gipovitaminozlar - 24%, osteodistrofiya - 20%, subklinik ketoz - 20%, mikroelementozlar - 30% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatgichlar xo'jalikdagi sigirlarning 80% dan ortig'ida modda almashinuvi buzilishlari bilan bog'liq yuqumsiz xususiyatlari patologiyalarning borligidan dalolat beradi.

"SAVAY MILK GROUP" qoramolchilik fermer xo'jaligiga qarashli sigirlarning ratsioni asosan silos-senaj tipida bo'lib, ratsion tarkibining 22,7 foizini tabiiy o'tlar pichani, 59,09 foizini beda senaji, 13,63 foizini bug'doy kepagi, 4,54 foizini bug'doy yormasi tashkil etadi.

Sigirlar ratsionining umumiy tuyimligi 10,73 oziqa birligini tashkil etdi. Oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ratsion to'yimligining 2,07 oz. birligiga, 670 g qandni, 89,14 mg karotinni, 16,4 g fosforni kamligi va 300 g hazmlanuvchi proteinni, 86,8 g kalsiyni ortiqchaligi aniqlandi. Sigirlar organizmini to'yimli moddalar bilan ta'minlanish darajasi tahlili natijalariga ko'ra, hazmlanuvchi protein bilan ta'minlanishi 123,4% ni, xom yog' - 110,7% ni, xom kletchatka - 71,4 %, qand - 41,8%, kalsiy - 191,6 %, fosfor - 75,8%, magniy - 131,1%, mis - 149,9%, kobalt - 13,1%, rux - 58,0% va yod bilan ta'minlanishi - 69,7% ni tashkil etdi. Sigirlar ratsionidagi qand protein nisbati 0,30:1 ni (Me'yor 0,8-1,5:1) tashkil etdi. Kalsiy va fosfor nisbatlarining ham nomutanosibligi aniqlandi. Kalsiy-fosfor nisbati me'yordagi (2:1) o'rniga 3,53:1 ni tashkil etdi.

“Navruz saxovat mezoni” qoramolchilik xo'jaligidagi sigirlar ratsioni tahliliga ko'ra ratsion strukturasida shirali oziqalar ulushi 57,031% ni (me'yor - 50-60%), dag'al oziqalar 23,98% ni (me'yor - 15-30%), konsentrat oziqalar 18,79% ni (me'yor - 15-20%) tashkil etdi. Sigirlar ratsionining umumiy tuyimligi 12,87 oziqa birligini tashkil etdi. Oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ratsion to'yimligini 0,07 oz. birligiga, 282 g qandni, 55,1 mg karotinni, 8,6 g fosforni kamligi va 43,3 g kalsiyni, 173 g hazmlanuvchi proteinni ortiqchaligi aniqlandi. Sigirlarni ratsion bilan ta'minlanish darajasi tahlil natijalariga ko'ra hazmlanuvchi protein bilan ta'minlanish o'rtacha 113,5% ni, xom yog' - 124,8% ni, xom kletchatka - 74,4%, qand - 75,5%, kalsiy - 141,6%, fosfor - 87,3%, mis - 121,1%, kobalt - 18,9%, marganes - 95,9%, rux - 67,1%, yod - 75,4% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Sog'in sigirlarning klinik-fiziologik ko'rsatkichlari**” deb atalgan bo'limida yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarning klinik belgilari, simptom va sindromlari to'g'risidagi tadqiqot natijalari bayon etilgan.

“SAVAY MILK GROUP” fermer xo'jaligiga qarashli sog'in sigirlarning 70-80 foizida shilliq pardalarning oqarishi, lizuxa (ishtahaning o'zgarishi), 20-30 foizida oxirgi dum umurtqalarining so'rishi, ko'z atrofida, peshona va pastki jag'da junlarning rangsizlanishi qayd etildi.

Organizmda yod va rux yetishmovchiliga xos belgi sifatida kuzatiladigan alopesiya o'rtacha 16,6-50% hayvonda, parakeratoz o'rtacha 30-40% hayvonda, ko'pchilik sigirlarda bo'yin sohasi terisida va sonning ichki yuzasi terisida burmalarning hosil bo'lishi, qalinlashishi va elastikligining pasayishi (parakeratoz), oyoq bo'g'inlarining kattalashishi va deformatsiyasi, «yolg'on yollar»ning hosil bo'lishi, oyoqlarni tez-tez almashtirib turish holati qayd etildi.

Sigirlarda bir daqiqadagi nafas sonining ham sut berish davrida oshib borishi kuzatilib, laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $18,8 \pm 2,6$ martani, 2- oyida $20,6 \pm 2,6$, 3-oyida - $22,4 \pm 2,8$, 4- oyida - $28,6 \pm 2,2$, 5- oyida o'rtacha $30,5 \pm 2,2$ martani tashkil etdi. Sigirlarda ikki daqiqadagi ruminatsiya soni sut berish davrida kamayib borishi kuzatilib, laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $4,5 \pm 0,05$ martani, 2- oyida $4,2 \pm 0,06$, 3-oyida - $3,0 \pm 0,05$, 4- oyida - $3,0 \pm 0,08$, 5-oyida - $2,8 \pm 0,08$ martani tashkil etdi. Katta qorin qisqarishlari sonining laktatsiya davomida fiziologik me'yorlarning pastki chegarasigacha kamayib borishi xarakterli bo'ldi (1- jadval).

Mahsuldar sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalar anemiyasi, 40-50 foiz sigirlarda teri qoplamasasi yaltiroqligi va elastikligining

pasayishi, bo‘yin, ko‘z atroflarida junlarning to‘kilishi, bo‘yin sohasida terining burmali holatga kelganligi (giperkeratoz) bilan kechishi, hamda sigirlarda jinsiy siklning noto‘liq kechishi bilan xarakterlanadi.

1- jadval

“Navruz saxovat mezoni” qoramolchilik fermer xo‘jaligiga qarashli simmental zotli sigirlar klinik ko‘rsatkichlari

Tekshirishlar vaqtisi (laktatsiya davrlari)	Tana harorati, °C	Puls soni, 1 daqiqada	Nafas soni, 1 daqiqada	Ruminatsiya, 2 daqiqada
1 -oy	39,5±0,03	56,8±2,8	18,8±2,6	4,5±0,05
2 -oy	39,4±0,04	76,9±2,3	20,6±2,6	4,2±0,06
3- oy	38,8±0,05	86,4±2,4	22,4±2,8	3,0±0,05
4-oy	39,5±0,04	86,7±3,0	28,6±2,2	3,0±0,08
5-oy	39,4±0,06	87,6±3,5	30,5±2,2	2,8±0,08

Dissertatsiyaning “Sog‘in sigirlarning gematologik ko‘rsatkichlari va reproduktiv a’zolarning funksional holati” deb nomlangan bo‘limida sigirlarda yod va rux yetishmasligi oqibatidagi bepushtliklar paytida kuzatiladigan gematologik o‘zgarishlar va reproduktiv xususiyatlarini o‘rganish natijalari bayon etilgan.

“Navruz saxovat mezoni” fermer xo‘jaligiga qarashli chetdan keltirilgan simmental zotiga mansub 2- tug‘im mahsuldor sog‘in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarda qondagi o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida xo‘jalikdagi simmental zotiga mansub 10 bosh (etalon hayvonlar) sigirlardan olingen qon namunalari ayrim morfobiokimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tekshirishlardan o‘tkazildi.

Sog‘in sigirlar qonidagi eritrotsitlar soni tekshirishlar boshida (lakatatsiyaning 1-oyida), o‘rtacha $5,68\pm2,4$ mln/mkl ni (me’yor $5,0-7,5$ mln/mkl) tashkil etgan bo‘lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib (lakatatsiyaning 5- oyida), bu ko‘rsatkichning o‘rtacha $4,86\pm3,2$ mln/mkl gacha kamayishi qayd etildi.

Sigirlar qonidagi gemoglobin miqdorini tekshirishlarning oxiriga kelib, shunga mos ravishda o‘rtacha $92,6\pm4,6$ g/l dan $82,7\pm3,8$ g/l gacha kamayishi (me’yor 99-129 g/l) kuzatildi. Tekshirilgan sigirlarning qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori ham laktatsiya davrlari bo‘ylab kamayib borishi xarakterli bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich laktatsiyaning 5 - oyiga kelib o‘rtacha $68,2\pm2,04$ g/l ni (me’yor- 72-86 g/l) tashkil etdi. Dispanser tekshirishlar boshida sigirlar qonidagi glyukozaning miqdori o‘rtacha $2,30\pm0,06$ mmol/l ni (me’yor $2,22-2,33$ mmol/l) tashkil etgan bo‘lsa laktatsiyaning 5-oyiga kelib o‘rtacha $2,06\pm0,08$ mmol/l gacha kamayganligi xarakterli bo‘ldi. Mahsuldor sigirlar qonidagi glyukoza miqdorining laktatsiya davomida kamayib borishi ularning energiyaga bo‘lgan talabini to‘liq qondirilmayotganligidan dalolat beradi.

Qon zardobidagi ishqoriy zahiraning o‘rtacha $49,7\pm2,32$ hajm%CO₂ dan (me’yor 46-66 hajm%CO₂) $39,6\pm3,6$ hajm%CO₂ gacha kamayishi xarakterli bo‘ldi.

Sigirlar qon zardobidagi umumiy kalsiy miqdori laktatsiyaning 1- oyida o‘rtacha $2,59\pm0,05$ mmol/l ni tashkil (me’yor $2,5-3,13$ mmol/l) etgan bo‘lib, laktatsiyaning 5-oyiga borib, $2,42\pm0,05$ mmol/l gacha kamayishi kuzatildi. Anorganik fosfor

miqdorining shunga mos holda, o'rtacha $1,85\pm0,03$ mmol/l dan $1,38\pm0,05$ mmol/l ga kamayishi (me'yor - 1,45-1,94) aniqlandi. Sigirlar qonidagi rux miqdori laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $40,5\pm1,8$ mkmol/l ni, 2- oyida $38,4\pm1,4$ mkmol/l ni, 3- oyida $38,2\pm1,06$ mkmol/l ni, 4- oyida $36,5\pm1,05$ mkmol/l ni, 5- oyida $32,6\pm1,5$ mkmol/l ni (me'yor-46,1-61,1mkmol/l) tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar sog'in sigirlarda qondagi rux miqdorining laktatsiya davomida kamayib borishidan dalolat beradi.

Sigirlar qonidagi ruxning miqdori laktatsiya davrida kamayib borishi kuzatilib, laktatsiyaning 5- oyiga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 7,9 mkmol/l ga kamayganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar sog'in sigirlar qondagi rux zahiralarining laktatsiya davomida kamayib borishi va patologik jarayonning chuqurlashib borishidan dalolat beradi.

“SAVAY MILK GROUP” ga qarashli sog'in sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarda qondagi o'zgarishlarni o'rganish maqsadida xo'jalikdagi simmental zotiga mansub 10 bosh (etalon hayvonlar) sigirlardan olingan qon namunalari ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirishlardan o'tkazildi.

Sog'in sigirlar qonidagi eritrotsitlar soni tekshirishlar boshida (lakatatsiyaning 1- oyida), o'rtacha $5,48\pm1,21$ mln/mkl ni (me'yor 5,0-7,5 mln/mkl) tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib (lakatatsiyaning 5- oyida), bu ko'rsatkichning o'rtacha $4,68\pm1,22$ mln/mkl gacha kamayishi qayd etildi.

Sigirlar qonidagi gemoglobin miqdori laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $89,5\pm2,56$ g/l ni tashkil qilgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib, gemoglobin konsentratsiyasining shunga mos ravishda o'rtacha $72,3\pm2,63$ g/l gacha kamayishi (me'yor 99-129 g/l) kuzatildi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sigirlar organizmida yod, rux mikroelementlarining yetishmasligi organizmda modda almashinuvlarining izdan chiqishi, shuningdek, qon ishlab chiqarilishining yomonlashishi oqibatida kuchli anemiya rivojlanayotganlidan dalolat beradi.

Dispanser tekshirishlar boshida sigirlar qonidagi glyukozaning miqdori o'rtacha $2,32\pm0,06$ mmol/l ni (me'yor 2,22-2,33 mmol/l) tashkil etdi. Tadqiqotlar davomida bu ko'rsatkich kamayib borib, tekshirishlar oxirida, ya'ni laktatsiyaning 5- oyida o'rtacha $2,18\pm0,05$ mmol/l ni tashkil etdi. Mahsuldar sigirlar qonidagi glyukoza miqdorining laktatsiya davomida kamayib borishi ularda kuyga kelishning kechikishi va bepushtligiga sabab bo'lishi mumkin.

Sigirlarning qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori laktatsiyaning birinchi oyida o'rtacha $75,8\pm2,06$ g/l ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichning laktatsiyaning 5- oyiga kelib, $64,6\pm2,02$ gacha kamayganligi aniqlandi. Qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori tekshirishlarning boshida, ya'ni laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $46,8\pm2,12$ hajm%CO₂ ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich ham laktatsiya davomida kamayib borishi bilan xarakterlanib, laktatsiyaning 5- oyiga kelib o'tacha $42,6\pm3,56$ hajm%CO₂ gacha kamayishi qayd etildi. Bu holat sog'in sigirlar organizmida atsidoz holatining vujudga kelishi bilan izohlanadi.

Qon zardobidagi umumiy kalsiy miqdori laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $2,68\pm0,05$ mmol/l ni tashkil etgan bo'lib, laktatsiyaning 5- oyiga borib, $2,38\pm0,05$ mmol/l gacha kamayishi kuzatildi. Anorganik fosfor miqdori shunga mos holda

o'rtacha $1,67 \pm 0,09$ mmol/l dan $1,45 \pm 0,06$ ga kamayishi aniqlandi. Tajribadagi sigirlar organizmida rux mikroelementining qondagi miqdorlari tahlil qilinganda laktatsiyaning davrlari bo'yab bu mikroelementlarning kamayib borishi xarakterli bo'ldi. Qondagi ruxning miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan tekshirishlar oxiriga kelib o'rtacha $6,5$ mkmol/l ga kamayishi aniqlandi.

Sigirlarda asosan yod va rux yetishmovchiligi bilan kechadigan mikroelementozlar qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarining laktatsiya davomida yomonlashib borishi, ya'ni, tekshirishlar davomida gemoglobinni o'rtacha $19,3\%$, glyukozani - $14,9\%$, ishqoriy zahirani - $9,0\%$, va ruxni - $13,92\%$ ga kamayishi bilan xarakterlandi.

O'quv tajriba xo'jaligiga qarashli sog'in sigirlarda qonidagi eritrotsitlar soni tekshirishlar boshida (lakatatsiyaning 1- oyida), o'rtacha $5,59 \pm 0,09$ mln/mkl ni (me'yor $5,0-7,5$ mln/mkl) tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib (lakatatsiyaning 5- oyida), bu ko'rsatkichning o'rtacha $5,28 \pm 1,05$ mln/mkl gacha kamayishi qayd etildi. Tekshirishlarning oxiriga shunga mos ravishda gemoglobin konsentratsiyasining o'rtacha $98,5 \pm 2,06$ g/l dan $78,5 \pm 2,54$ g/l gacha kamayishi (me'yor $99-129$ g/l) kuzatildi.

Dispanser tekshirishlar boshida sigirlar qonidagi glyukozanining miqdori o'rtacha (me'yor $2,22-2,33$ mmol/l) $2,28 \pm 0,05$ mmol/l ni tashkil etdi.

Tadqiqotlar davomida bu ko'rsatkich kamayib borib, tekshirishlar oxirida shunga mos ravishda ya'ni laktatsiyaning 5- oyida o'rtacha $2,08 \pm 0,06$ mmol/l ni tashkil etdi. Sigirlarning qon zardobidagi umumiyoqsil miqdori laktatsiyaning birinchi oyida o'rtacha $79,4 \pm 2,16$ g/l ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichning laktatsiyaning 5-oyiga kelib, $67,4 \pm 2,6$ g/l gacha kamayganligi tekshirishlarda aniqlandi.

Qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori tekshirishlarning boshida ya'ni laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $52,6 \pm 2,22$ hajm%CO₂ ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich ham laktatsiya davomida kamayib borishi bilan xarakterlanib, laktatsiyaning 4-oyiga kelib $40,6 \pm 3,8$ hajm%CO₂ gacha kamayishi qayd etildi.

Sigirlar qonidagi rux miqdori laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $48,5 \pm 2,36$ mkmol/l ni, 2- oyida $46,7 \pm 2,29$ mkmol/l ni, 3- oyida $44,5 \pm 2,16$ mkmol/l ni, 4- oyida $40,1 \pm 2,24$ mkmol/l ni, 5- oyida $39,8 \pm 2,18$ mkmol/l ni tashkil etdi. Sigirlar qonidagi ruxning miqdori laktatsiya davrida kamayib borishi kuzatilib, laktatsiyaning 5- oyiga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan $8,7$ mkmol/l ga kamayganligi aniqlandi.

Sog'in sigirlarda ultratovush tekshirish (UTT) apparati yordamida tekshirilganda 10 bosh sigirlarning 8 boshida (80%) bachadon subinvolyusiyasi aniqlandi. Laktatsiyaning 3-4 oylariga kelib 30% sigirlarning kuyga kelganligi aniqlandi va ular suniy urug'lantirildi. Qolgan sigirlarda laktatsiyaning 3-, 4-, 5- oylarida ham jinsiy sikl kuzatilmadi. Laktatsiyaning 5- oyiga kelib sigirlar akusher-ginekologik tekshiruvdan o'tkazilganda otalanish 20% ni tashkil etdi. Tekshirishlar davomida 40-50% sigirlarda kuyikishning yashirin kechayotganligi, ya'ni noto'liq jinsiy sikl aniqlandi (areaktiv jinsiy sikl). Sigirlarda servis davri o'rtacha 90-110 kunni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning "**Mahsuldor sigirlarda yod, rux yetishmovchiligi va ularning oqibatidagi bepushtliklarning guruhli profilaktikasi**" deb nomlangan 4-

bobida patologiyani oldini olish bo'yicha o'tkazilgan 3- bosqichli tajribalarning natijalari berilgan.

Birinchi bosqich tajribalar mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarning oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish, profilaktik vositalarni tanlash, ularni sigirlar organizmiga va gematologik hamda reproduktiv ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish maqsadida Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani "SAVAY MILK GROUP" fermer xo'jaligiga chetdan keltirilgan simmental zotiga mansub sog'in sigirlarda laktatsiyaning birinchi oyidan boshlab 60 kun davomida tajribalar olib borildi. Tajribadagi sigirlar har 20 kunda bir marta klinik, gematologik va akusher-ginekologik tekshirishlardan o'tkazib turildi.

Tajribalar uchun har birida 3 boshdan hayvonlar bo'lgan 5 ta guruh tashkil etildi. Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarga xo'jalik ratsioniga qo'shimcha bir boshga 100 mg kaliy yodid, ikkinchi guruhga 100 mg rux sulfat, uchinchi guruhga 100 mg kaliy yodid va 150 mg rux sulfat, to'rtinchi guruhga 100 mg kaliy yodid, 150 mg rux sulfat, 20 mg kobalt xlorid, 100 mg marganes sulfat kuniga bir marta berildi, beshinchi tajriba guruhi nazorat sifatida olinib, xo'jalik ratsionida oziqlantirildi.

Tajribadagi sog'in sigirlarda servis davrining davomiyligi, jinsiy siklni kechishi, otalanish foizi, qisir qolish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Sog'in sigirlarda umumi qabul qilingan klinik tekshirish usullari yordamida ishtaha, tana harorati, puls va nafas chastotasi, oshqozon oldi bo'limlarining holatini aniqlash bilan bir qatorda ushbu mikroelementzlarga xos klinik belgilarni borligiga ham e'tibor berildi.


Tajribalarning boshida barcha guruhlardagi 50-60% sigirlarda ishtahaning o'zgarishi, umumi holsizlanish, shilliq pardalar rangining oqarishi, 60% hayvonda junlarning pigmentsizlanishi va tushib ketishi deyarli barcha hayvonlarda oxirgi dum umurtqalarining so'rilihi, tishlarning qimirlashi, tuyoqlarning noto'g'ri o'sishi kabi mikroelementzlarga xos belgililar qayd etildi. Nazorat guruhidagi sog'in sigirlarda laktatsiyaning kuchayib borishi bilan mikroelementzlarga xos yuqorida ko'rsatilgan belgilarning yanada kuchayib borishi kuzatildi. Tajriba guruhlaridagi sigirlarda mikroelementzlarga xos belgililar deyarli kuzatilmadi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qondagi gemoglobin miqdori tajribalarning boshida o'rtacha $89,8 \pm 2,3$ g/l ni, glyukoza - $2,13 \pm 0,04$ mmol/l ni, umumi oqsil - $72,2 \pm 1,9$ g/l ni, karotin - $0,318 \pm 0,22$ mg% ni, ishqoriy zahira - $42,2 \pm 2,1$ hajm%CO₂ ni tashkil etib, tajribalarning oxirida bu ko'rsatkichlar shunga mos ravishda, o'rtacha $99,2 \pm 3,6$ g/l, $2,32 \pm 0,10$ mmol/l, $74,3 \pm 3,8$ g/l, $0,416 \pm 0,08$ mg%, $46,8 \pm 2,8$ hajm%CO₂ ga ko'payganligi qayd qilindi. Ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qondagi gemoglobin miqdori tajribalarning boshida o'rtacha $85,6 \pm 2,5$ g/l ni, glyukoza - $2,10 \pm 0,05$ mmol/l ni, umumi oqsil - $70,2 \pm 1,6$ g/l ni, karotin - $0,325 \pm 0,21$ mg% ni, ishqoriy zahira - $40,2 \pm 2,3$ hajm%CO₂ ni tashkil etib, tajribalarning oxirida bu ko'rsatkichlar shunga mos ravishda o'rtacha $86,2 \pm 3,5$ g/l, $2,22 \pm 0,13$ mmol/l, $74,3 \pm 3,8$ g/l, $0,346 \pm 0,18$ mg%, $42,2 \pm 2,5$ hajm%CO₂ ga ko'payganligi qayd qilindi.

Uchinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qondagi gemoglobin miqdori tajribalarning boshida o'rtacha $86,8 \pm 2,8$ g/l ni, glyukoza - $2,14 \pm 0,06$ mmol/l ni, umumi oqsil - $74,2 \pm 3,9$ g/l ni, karotin - $0,314 \pm 0,27$ mg% ni, ishqoriy zahira - $44,2 \pm 2,4$ hajm%CO₂ ni tashkil etib, tajribalarning oxirida bu ko'rsatkichlar shunga mos ravishda o'rtacha $90,2 \pm 2,4$ g/l, $2,28 \pm 0,21$ mmol/l, $74,8 \pm 3,9$ g/l, $0,352 \pm 0,26$

mg%, $46,2 \pm 2,6$ hajm%CO₂ ga ko‘payganligi qayd qilindi. To‘rtinchı tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalar oxiriga kelib, tajribalarning boshidagi ko‘rsatkichlarga nisbatan gemoglobin miqdori o‘rtacha 6,2 g/l ga, glyukozani - 0,18 mmol/l ga, umumiy oqsilni - 2,5 g/l ga, karotinni - 0,076 mg% ga, ishqoriy zahirani - 3,8 hajm%CO₂ ga oshganligi aniqlandi.

Nazorat guruhida esa tajribalar oxiriga kelib, tajribalarning boshidagi ko‘rsatkichlarga nisbatan gemoglobin miqdorini o‘rtacha 6 g/l ga, glyukozani - 0,06 mmol/l ga, karotinni - 0,064 mg% ga, ishqoriy zahirani - 3,0 hajm%CO₂ ga kamayganligi aniqlandi. Qon zardobidagi umumiy kalsiy miqdori birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib o‘rtacha 0,42 mmol/l ga, ikkinchi tajriba guruhida 0,46 mmol/l ga uchinchi guruhda 0,58 mmol/l ga, to‘rtinchı guruhda 0,62 mmol/l ga ko‘paygan bo‘lsa, anorganik fosfor shunga mos holda 0,22, 0,27, 0,29, 0,32 mmol/l ga, ruxni - 10,7, 14,2, 16,4 va 18,8 mkmol/l ga ko‘payganligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi sigirlarda umumiy kalsiy miqdori tajribalarning oxiriga kelib o‘rtacha 0,12 mmol/l ga, anorganik fosforni shunga mos holda 0,2 mmol/l ga va ruxni - 5,9 mkmol/l ga kamayganligi aniqlandi.



1-rasm. Tajribadagi sigirlar qonidagi ruxning miqdori

Tajribalar davomida boshqa tajriba va nazorat guruhlariga nisbatan to‘rtinchı tajriba guruhda ko‘rsatkichlarning yaxshiroq namoyon bo‘lishi, sut mahsuldarligining nazorat guruhiga nisbatan 15-22% ga yuqori bo‘lishi kuzatildi. Qo‘llanilgan mikroelementlarning sigirlarda jinsiy siklning kechishi, kuyikish belgilarining namoyon bo‘lishi va urug‘lanishiga ta’siri o‘rganilganda tajriba va nazorat guruhidagi sigirlarning barchasi kuyga keldi va ular suniy urug‘lantirildi. Otalanish darajasi UTT apparatida aniqlanganda 1 oydan so‘ng birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarda o‘rtacha 80-90% ni, to‘rtinchı guruhda bu ko‘rchatkich 100% ni tashkil etdi. Birinchi tajriba guruhida kuyga kelmagan 1 bosh sigir tekshirilganda bachadon subinvolusiyasi borligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi sigirlarning 2 boshi laktatsiyaning 4- oyidan boshlab kuyga keldi. Suniy urug‘lantirishdan so‘ng 1 boshi 20 kundan so‘ng qayta kuyga keldi. 1- bosh umuman kuyga kelmagan sigir rektal tekshirilganda persistent sariq tana borligi aniqlandi.

Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligin oldini olish maqsadida kuniga bir boshga bir marta 60 kun davomida xo‘jalik ratsioniga qo‘shimcha ravishda 100 mg kaliy yodid, 100 mg rux sul’fat, 20 mg kobalt xlorid, 100 mg marganes sul’fat qo‘shib berilishi ularda moddalar almashinuvini yaxshilaydi, klinik-gematologik ko‘rsatkichlarning fiziologik me’yorlar chegarasida bo‘lishi hamda otalanish darajasini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqich tajribalar Farg‘ona vodiysining kuchli darajada yod yetishmaydigan va rux yetishmaydigan biogeokologik sharoitidagi mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish, profilaktika vositalarining sigirlar mahsuldorligi va reproduktiv organlarning holatiga ta’sirini o‘rganish maqsadida Andijon viloyati, Qo‘rg‘ontepa tumani “Navruz saxovat mezoni” fermer xo‘jaligiga qarashli chetdan keltirilgan simmental zotiga mansub sog‘in sigirlarda laktatsiyaning birinchi oyidan boshlab 90 kun davomida tajribalar olib borildi. Tajribadagi sog‘in sigirlar har oyda bir marta klinik, hematologik tekshirishlardan o‘tkazib turildi. Tajribalar davomida sigirlarda jinsiy reaksiyalarning namoyon bo‘lishi, ularning kuyga kelishi, urug‘lanish darajasi kuzatib borildi.

